IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

ELEKTRON TIJORAT SHARTNOMALARINI MILLIY VA XALQARO XUSUSIY HUQUQ NORMALARI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Obidjonova Sevaraxon Baxodirjon qizi
Mustaqil izlanuvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23204379

Annotasiya. Mazkur maqolada elektron tijorat sohasidagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishning milliy va xalqaro-xususiy huquqiy asoslari tadqiq etilgan. Muallif O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini (jumladan, «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi va «Elektron raqamli imzo to‘g‘risida»gi qonunlarni) BMTning YUNSITRAL doirasida ishlab chiqilgan namunaviy qonunlar va konvensiyalar bilan qiyosiy tahlil qilgan holda, transchegaraviy elektron bitimlarda qo‘llaniladigan huquqni aniqlash, taraflarning irodaviy muxtoriyati, elektron hujjat va raqamli imzoning yuridik kuchini o‘zaro tan olish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hamda nizolarni hal etish mexanizmlaridagi mavjud muammolarni aniqlagan. Tadqiqot yakunida milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha aniq takliflar ilgari surilgan.
Kalit so‘zlar: Elektron tijorat, elektron shartnoma, xususiy xalqaro huquq, kollizion norma, taraflarning irodaviy muxtoriyati, elektron raqamli imzo, YUNSITRAL namunaviy qonuni, transchegaraviy bitimlar, iste'molchilarni himoya qilish, elektron hujjat aylanishi.

Аннотация. В статье исследуются национальные и международные частноправовые основы регулирования договорных отношений в сфере электронной торговли. Автор проводит сравнительно-правовой анализ действующего законодательства Республики Узбекистан, включая законы «Об электронной коммерции» и «Об электронной цифровой подписи», с Типовыми законами и конвенциями, разработанными в рамках ЮНСИТРАЛ. В исследовании выявлены актуальные проблемы определения применимого права к трансграничным электронным сделкам, реализации автономии воли сторон, взаимного признания юридической силы электронных документов и цифровых подписей, защиты прав потребителей, а также механизмов разрешения споров. По результатам исследования сформулированы конкретные предложения по совершенствованию национального законодательства и его гармонизации с международными стандартами.
Ключевые слова: электронная торговля, электронный договор, международное частное право, коллизионная норма, автономия воли сторон, электронная цифровая подпись, Типовой закон ЮНСИТРАЛ, трансграничные сделки, защита прав потребителей, электронный документооборот.

Abstract. This article examines the national and private international law frameworks governing contractual relations in the field of electronic commerce. The author provides a comparative legal analysis of the current legislation of the Republic of Uzbekistan, including the Laws “On Electronic Commerce” and “On Electronic Digital Signature”, in comparison with the

model laws and conventions developed within the framework of UNCITRAL. The study identifies key issues concerning the determination of applicable law to cross-border electronic transactions, party autonomy, mutual recognition of the legal validity of electronic documents and digital signatures, consumer protection, and dispute resolution mechanisms. Based on the findings, specific proposals are put forward to improve national legislation and harmonize it with international standards.

Keywords: electronic commerce, electronic contract, private international law, conflict-of-laws rule, party autonomy, electronic digital signature, UNCITRAL Model Law, cross-border transactions, consumer protection, electronic document management.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi tovar va xizmatlar aylanishi shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar o‘rtasidagi bitimlarning katta qismi endi qog‘oz shaklidagi an'anaviy shartnomalar emas, balki elektron maydonchalar, axborot tizimlari va masofaviy aloqa vositalari orqali tuzilmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirsa, ikkinchi tomondan, huquqshunoslik oldida yangi, avval mavjud bo‘lmagan muammolarni ko‘ndalang qo‘ymoqda: elektron shartnomaning tuzilgan va yuridik kuchga kirgan paytini qanday belgilash kerak, taraflar turli davlatlarda joylashgan bo‘lsa, qaysi davlat huquqi qo‘llanilishi lozim, elektron imzoning chegara ortida tan olinishi qanday ta'minlanadi va nizo kelib chiqqanda qaysi sud yoki arbitraj vakolatli hisoblanadi — mana shu savollarga javob milliy qonunchilik bilan bir qatorda xalqaro xususiy huquq instrumentlarini ham chuqur o‘rganishni talab etadi.

Mavzuning dolzarbligi yana shunda namoyon bo‘ladiki, O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini izchil amalga oshirayotgan bo‘lsa-da, milliy qonunchilik hali ham ko‘plab jihatlarda xalqaro amaliyotdan ortda qolmoqda, xususan, transchegaraviy elektron shartnomalarga nisbatan kollizion-huquqiy tartibga solish deyarli mavjud emas.

Elektron tijorat munosabatlarini huquqiy tartibga solish muammolari jahon huquqshunosligida keng tadqiq etilgan mavzulardan biri hisoblanadi.

Xalqaro darajada bu boradagi asosiy nazariy va amaliy negizni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasi (YUNSITRAL) tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar tashkil etadi. YuNSITRALning Elektron tijorat to‘g‘risidagi namunaviy qonuni (MLES) milliy qonunchilarga elektron tijoratni amalga oshirishni yengillashtiruvchi va huquqiy to‘siqlarni bartaraf etuvchi xalqaro tan olingan qoidalar majmuasini taqdim etishni maqsad qilgan bo‘lib, u qog‘ozda rasmiylashtirilgan va elektron shakldagi axborotga teng munosabatda bo‘lishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, mazkur namunaviy qonun kamsitmaslik, texnologik betaraflik va funksional ekvivalentlik tushunchalarini shakllantirish bilan birga, elektron vositalar orqali tuzilgan shartnomalarning tuzilishi va haqiqiyligiga, ma'lumot xabarlarini taraflarga nisbat berishga, qabul qilinganligini tasdiqlashga hamda xabarlarning jo‘natilish va qabul qilinish vaqti va joyini aniqlashga doir qoidalarni belgilaydi. Luis Kastellani kabi YUNSITRAL mutaxassislari o‘z tadqiqotlarida ko‘rsatishicha, ushbu namunaviy qonun asosida 65 dan ortiq davlat milliy qonunchiligini takomillashtirgan, shuningdek uning mantiqiy davomi sifatida Elektron raqamli imzo to‘g‘risidagi namunaviy qonun ham qabul qilingan. Shu bilan birga, olimlar namunaviy qonunlarning "yumshoq huquq" (soft law) xususiyatiga ega

ekanligini, ya'ni ularning har bir davlat tomonidan milliy implementasiya jarayonida turlicha o‘zgartirilishi mumkinligini, buning esa huquqiy uyg‘unlikka to‘sqinlik qilishi xavfini alohida ta'kidlashadi.

Xususiy xalqaro huquq nuqtai nazaridan elektron shartnomalarga nisbatan taraflarning irodaviy muxtoriyati (party autonomy) tamoyilining qo‘llanilishi masalasi alohida e'tiborga loyiq. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, taraflarning kim bilan va qanday shartlarda shartnoma tuzish erkinligini belgilovchi irodaviy muxtoriyat tamoyili Tovarlarni xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to‘g‘risidagi BMT Konvensiyasida (1980 yil) hamda 1996 va 2001 yilgi namunaviy qonunlarda mustahkamlangan bo‘lib, xuddi shu tamoyil elektron bitimlar to‘g‘risidagi konvensiyada ham o‘z aksini topgan — bu esa taraflarga elektron vositalardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy nizolarni o‘zaro kelishuv asosida hal qilish imkonini beradi.

Milliy doktrinada esa elektron tijoratni tartibga solish masalalari asosan ma'muriy-huquqiy va axborot huquqi nuqtai nazaridan o‘rganilgan bo‘lib, elektron shartnomalarning fuqarolik-huquqiy tabiati, ayniqsa ularning transchegaraviy-kollizion jihatlari hali ham yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan. Ayrim MDH davlatlari (jumladan Ukraina) misolida o‘tkazilgan tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, YUNSITRAL doirasidagi 1996 yilgi Elektron tijorat to‘g‘risidagi namunaviy qonun, 2001 yilgi Elektron imzolar to‘g‘risidagi namunaviy qonun va 2005 yilgi Elektron aloqa vositalaridan foydalanish to‘g‘risidagi BMT Konvensiyasi tahlili asosida milliy qonunchilikni takomillashtirishga oid aniq takliflar ishlab chiqilgan, bu esa O‘zbekiston uchun ham metodologik ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida elektron tijoratni tartibga solishning zamonaviy negizini 2022 yilda qabul qilingan ikki asosiy qonun tashkil etadi. 2022 yil 29 sentyabrda «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi O‘RQ-792-son Qonuni qabul qilingan bo‘lib, u avvalgi 2004 yilgi qonunni o‘z kuchini yo‘qotgan deb e'lon qildi. Ushbu qonunga ko‘ra, elektron tijoratda shartnoma taraflar o‘rtasida shartnoma shartlarini elektron hujjatlar va (yoki) xabarlarni tasdiqlash yo‘li bilan kelishish orqali elektron hujjat shaklida rasmiylashtiriladi, bunda elektron hujjatlar qog‘ozda rasmiylashtirilgan va qo‘lda imzolangan hujjatlarga tenglashtiriladi. Parallel ravishda, elektron imzolardan foydalanish munosabatlarini «Elektron raqamli imzo to‘g‘risida»gi alohida qonun tartibga soladi, unda agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida milliy qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, aynan xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llanilishi belgilab qo‘yilgan — bu norma, garchi umumiy tusda bo‘lsa-da, milliy va xalqaro huquq o‘rtasidagi nisbatni belgilashga urinish sifatida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikning tahlili quyidagi jiddiy kamchiliklarni aniqlashga imkon beradi:

Birinchidan, «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi qonun asosan milliy sub'ektlar o‘rtasidagi yoki milliy iste'molchi ishtirokidagi munosabatlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda taraflardan biri chet el yuridik yoki jismoniy shaxsi bo‘lgan transchegaraviy elektron shartnomalarga nisbatan qo‘llaniladigan huquqni aniqlash (kollizion bog‘lovchi omillar) tartibi deyarli ishlab chiqilmagan. Fuqarolik kodeksining umumiy kollizion normalari (masalan, shartnoma uchun xarakretli ijro prinsipi) elektron muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini — tomonlarning joylashgan yeri elektron maydonchada ko‘rinmasligi, server joylashgan davlat bilan shartnoma taraflarining fuqaroligi yoki rezidentligi o‘rtasidagi tafovut kabi holatlarni — to‘liq hisobga olmaydi.

Ikkinchidan, elektron hujjat va elektron raqamli imzoning chet davlatda berilgan (masalan, xorijiy sertifikasiya markazi tomonidan yaratilgan) shakllarini tan olish mexanizmi aniq emas. Amaliyotda bu holat xorijiy kontragent bilan tuzilgan elektron shartnomaning O‘zbekiston sudida isbotlovchi kuchini tan olish borasida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchidan, elektron tijoratda iste'molchilarni himoya qilishning maxsus, transchegaraviy savdoga moslashtirilgan normalari yetarli emas — iste'molchi bilan tadbirkor o‘rtasidagi nizo, ayniqsa tadbirkor chet elda ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, qaysi davlat sudi va qaysi huquq asosida ko‘rilishi masalasi ochiq qolmoqda.

To‘rtinchidan, elektron shartnomalar bo‘yicha nizolarni hal etishda muqobil usullar (masofaviy mediasiya, onlayn arbitraj — ODR) milliy qonunchilikda amalda mavjud emas, holbuki bu usullar aynan transchegaraviy elektron bitimlar uchun eng samarali hisoblanadi.

Xalqaro xususiy huquq nuqtai nazaridan elektron shartnomalarni tartibga solishning markaziy muammosi — an'anaviy kollizion kategoriyalarning (shartnoma tuzilgan joy, ijro joyi, taraf rezidentligi) raqamli muhitga mos kelmasligidir. Elektron maydonchalar orqali tuzilgan shartnomada "shartnoma tuzilgan joy" tushunchasi ko‘p hollarda shartli xarakter kasb etadi, chunki server, operator va taraflarning joylashgan yeri turli yurisdiksiyalarda bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi muammo — taraflarning irodaviy muxtoriyati tamoyilining amalda cheklanganligi bilan bog‘liq. Ommaviy oferta shaklidagi (masalan, internet-do‘kon foydalanish shartlari) elektron shartnomalarda iste'molchi tomon, odatda, qo‘llaniladigan huquqni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi — bu shart oldindan tadbirkor tomonidan belgilab qo‘yiladi, natijada zaif taraf manfaatlari yetarli darajada himoyalanmay qolishi mumkin.

Uchinchi muammo — xalqaro hujjatlarga (YUNSITRAL namunaviy qonunlari, 2005 yilgi Elektron aloqa vositalari konvensiyasi) O‘zbekistonning qo‘shilmaganligi bilan bog‘liq. Bu holat milliy sud va arbitraj organlari uchun transchegaraviy elektron nizolarni hal etishda xalqaro tan olingan mezonlarga tayanish imkoniyatini cheklaydi va milliy qonunchilikni xalqaro hamjamiyat bilan uyg‘unlashtirishni qiyinlashtiradi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hisobga olgan holda, elektron tijorat shartnomalarini tartibga solish tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Fuqarolik kodeksi yoki «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi qonunga elektron shartnomalarga xos maxsus kollizion bog‘lovchi omillarni (masalan, tadbirkorning asosiy faoliyat yuritish joyi, iste'molchining odatiy yashash joyi) belgilovchi alohida modda kiritish maqsadga muvofiq.

YuNSITRALning 2005 yilgi Elektron aloqa vositalaridan foydalanish to‘g‘risidagi Konvensiyasiga qo‘shilish masalasini o‘rganish, bu transchegaraviy elektron shartnomalarning yuridik kuchini xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy sertifikasiya markazlari tomonidan berilgan elektron raqamli imzolarni tan olish tartibini aniq reglamentlovchi nizom qabul qilish, zarur hollarda ikki tomonlama yoki mintaqaviy kelishuvlar tuzish orqali amalga oshirish mumkin.

Transchegaraviy elektron savdoda iste'molchi uchun imperativ himoya normalarini (masalan, iste'molchi rezident bo‘lgan davlat huquqining minimal himoya darajasidan chetlashishga yo‘l qo‘ymaslik) joriy etish.

Elektron tijorat sub'ektlari o‘rtasidagi nizolarni tezkor va arzon hal etish uchun masofaviy mediasiya va onlayn arbitraj mexanizmlarini qonunchilikka kiritish.

Elektron shartnomalar bo‘yicha nizolarni ko‘rib chiquvchi sud va arbitraj organlari xodimlarining xalqaro xususiy huquq va raqamli isbotlar (elektron dalillar) sohasidagi malakasini oshirish dasturlarini joriy etish.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida elektron tijoratni tartibga solishning milliy-huquqiy negizi so‘nggi yillarda sezilarli darajada takomillashgan bo‘lsa-da, u asosan ichki munosabatlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, transchegaraviy elektron shartnomalarning xususiy-huquqiy, ayniqsa kollizion jihatlari deyarli ochib berilmagan. Xalqaro tajriba, xususan YUNSITRAL doirasida ishlab chiqilgan namunaviy qonunlar va konvensiyalar, milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun yetarli metodologik asos bera oladi. Milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek tegishli xalqaro hujjatlarga qo‘shilish masalasini chuqur o‘rganish — O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotining xalqaro savdo tizimiga integrasiyalashuvini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 sentyabrdagi O‘RQ-792-son «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 12 oktyabrdagi O‘RQ-793-son «Elektron raqamli imzo to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
4. UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce (1996) with Guide to Enactment. United Nations Commission on International Trade Law, New York, 1996.
5. UNCITRAL Model Law on Electronic Signatures (2001). United Nations Commission on International Trade Law, Vienna, 2001.
6. United Nations Convention on the Use of Electronic Communications in International Contracts (2005).
7. United Nations Convention on Contracts for the International Sale of Goods (CISG), Vienna, 1980.
8. Castellani, L.G. The United Nations Convention on the Use of Electronic Communications in International Contracts at Ten: Practical Relevance and Lessons Learned // Journal of Law, Society and Development, Vol. 3, Issue 1, 2016. — pp. 132–152.
9. Caprioli, E.A. Droit matériel international du commerce électronique // Droit international de l'économie numérique. 2e éd. — Paris: LexisNexis, 2007. — Ch. 2.
10. Dissertasiya tadqiqoti: Electronic commerce regulation in the context of UNCITRAL harmonization instruments (Ukrainian legislation case study).
11. Boguslavskiy M.M. Mejdunarodnoe chastnoe pravo: uchebnik. — M.: Norma, 2016.